

## **Jahon banki ko‘magida O‘zbekiston qazib olinadigan yoqilg‘i uchun subsidiyalarni va issiqxona gazlari emissiyasini kamaytiradi**

*Jahon banki ko‘magida iqlim o‘zgarishi bo‘yicha siyosiy choralarini moliyalashtirishga qaratilgan dunyodagi birinchi loyihani amalga oshirish bo‘yicha bitim imzolandi. Shuningdek, ushbu loyiha Markaziy Osiyoda Parij kelishuvida ko‘zda tutilgan mexanizmlar doirasida amalga oshirilgan birinchi xalqaro bitim bo‘ladi.*

**MARRAKESH, 2023-yil 12-oktabr** — Jahon banki guruhi va Xalqaro Valyuta Jamg‘armasining Marrakeshda (Marokash) bo‘lib o‘tayotgan yillik yig‘ilishlari doirasida O‘zbekiston hukumati va Jahon banki vakillari 46,25 million dollar miqdoridagi moliyalashtirish to‘g‘risida bitimni imzoladilar. Ushbu mablag‘lar ["O‘zbekiston energetika sektorini transformatsiya qilish uchun innovatsion uglerodli moliyalashtirish" \(iCRAFT\) loyihagini](#) amalga oshirish uchun ishlatiladi. Loyiha toza energiya ishlab chiqarishga, energiya samaradorligini oshirishga va energiya subsidiyalarini isloh qilishda ko‘mak beradi.

Jahon bankining [Uglerod aktivlarini transformatsiya qilish jamg‘armasi \(TCAF\)](#) tomonidan moliyalashtirilgan iCRAFT loyihasi bankning energetika sohasidagi islohotlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha birinchi global tashabbusi bo‘lib, ma‘lum bir sohadagi aniq natijalar uchun to‘lovlar orqali issiqxona gazlari emissiyalarini kamaytirishni rag‘batlantiradi. Loyiha O‘zbekistonga iqlim o‘zgarishi sohasidagi xalqaro majburiyatlarini bajarishda va energiya resurslaridan samarali foydalanishda yordam beradi. iCRAFT kelajakda dunyoning turli mintaqalarida amalga oshirilayotgan shunga o‘xshash loyihalar uchun namuna bo‘lib xizmat qilishi kutilmoqda.

O‘zbekiston nisbiy energiya sarfi va issiqxona gazlari emissiyasi eng yuqori bo‘lgan davlatlar qatoriga kiradi. Ushbu holat mamlakatda energiya ishlab chiqarish va uzatish uchun yuqori subsidiyalar bilan izohlanadi. Bu amaliyot natijasida elektr va gaz uchun tariflar past. Shu tariqa, energiya korxonalari tomonidan yetkazib beriladigan xizmatlardan olinadigan daromadlar tegishli energiya turlarini ishlab chiqarish va iste‘molchilarga yetkazib berish xarajatlarini qoplash uchun yetarli emas.

O‘z navbatida, arzon tariflar energiyani tejash hamda uy xo‘jaliklari va xususiy sektorda energiya tejaydigan texnologiyalarni joriy etishni qo‘llab quvvatlamaydi. Shuningdek, ular energiya korxonalarining foydalanuvchilarga sifatli xizmat ko‘rsatish imkoniyatlarini cheklamoqda. Hukumat esa, o‘z navbatida, energiyani ishlab chiqarish xarajatlariga moslashtirish maqsadida energiya tariflarining bosqichma-bosqich ko‘tarilishiga olib keladigan islohotlarni boshladi.

Hukumat iCRAFT loyihasi doirasida taqdim etilgan mablag'larning bir qismi aholining kam ta'minlangan xonadonlarni tariflarning ko'tarilishidan himoya qilish uchun sarflanadi. Jumladan, loyiha "yashil" iqtisodiyotga o'tish bo'yicha davlat dasturini va energetika sohasini isloh qilishga qaratilgan boshqa chora-tadbirlarni amalga oshirishni qo'llab quvvatlaydi.

"Biz O'zbekistonning energetika sohasini isloh qilish va "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirish borasidagi izchil sa'y - harakatlarini olqishlaymiz", — dedi **Jahon bankining Markaziy Osiyo bo'yicha mintaqaviy direktori Tatyana Proskuryakova** Marrakeshda loyiha bitimlarini imzolash marosimida. "Yangi loyiha energiyaning ortiqcha sarfiga olib keladigan subsidiyalarni bosqichma-bosqich bekor qilish va subsidiyalarga sarflangan byudjet mablag'larini sog'liqni saqlash, ta'lim va aholini ijtimoiy himoya qilish kabi boshqa ustuvor yo'nalishlarga ajratishdagi birinchi qadamdir. Energetika sohasidagi samarali islohotlar O'zbekiston iqtisodiyotini mustahkamlaydi va issiqxona gazlari emissiyalarini sezilarli darajada kamaytiradi".

iCRAFT loyihasi Markaziy Osiyodagi birinchi issiqxona gazlari emissiyalarini kamaytirish orqali global harorat ko'tarilishini cheklashga qaratilgan birinchi xalqaro bitim bo'lib— [Parij kelishuvida](#) ko'zda tutilgan bozor mexanizmlari doirasida issiqxona gazlari emissiyalarini kamaytirish bo'yicha sa'y - harakatlarni moliyalashtiradi.

Xususan, loyiha doirasida 2027 yilgacha kamaytirilgan issiqxona gazlari emissiyalari chiqindilarni mamlakatdan sotib olish rejalashtirilgan, ularni kamaytirish energiya resurslaridan yanada samarali foydalanish va energiya subsidiyalarini isloh qilish tufayli mumkin bo'ladi.

Loyiha, shuningdek, O'zbekistonga "uglerod kreditlari" deb yuritiladigan savdo bo'yicha xalqaro pilot bitimi orqali xalqaro uglerod bozorlariga kirishga yordam beradi. Ushbu chora-tadbirlar mamlakatning "yashil" iqtisodiyotga o'tishini tezlashtiradi.

"O'zbekiston hukumati ushbu innovatsion loyihani amalga oshirish imkoniyatini olqishlamoqda. Prognozlariga ko'ra, uni amalga oshirish davrida biz karbonat ангидрид emissiyasini qariyb 60 million tonnaga kamaytira olamiz", — dedi **O'zbekiston Respublikasi bosh vazirining o'rinbosari va Jahon banki guruhi menejeri Jamshid Qo'chqorov**. "Ushbu 60 million tonnadan loyiha doirasida mamlakatdan 2-2,5 million tonna karbonat ангидрид sotib olinadi. O'zbekiston qolgan uglerod birliklarini loyiha davomida yaratilgan va sinovdan o'tgan tizimlar, infratuzilma va mexanizmlardan foydalangan holda xalqaro uglerod bozorlarida sotishi mumkin bo'ladi".

Jahon banki va TCAF rivojlanayotgan mamlakatlarni issiqxona gazlari emissiyalarini kamaytirish va iqlim o'zgarishi ta'siriga moslashish bo'yicha xalqaro majburiyatlarini bajarishda qo'llab quvvatlaydi. O'zbekistonda ushbu loyihani amalga oshirishi Jahon bankiga a'zo bo'lan boshqa manfaatdor davlatlar uchun namuna bo'lib xizmat qiladi.

Kanada, Germaniya, Norvegiya, Ispaniya, Shvetsiya, Shveysariya va Buyuk Britaniya hukumatlari, shuningdek, "Climate Cent Foundation" (Shveysariya) jamg'armasi TCAF faoliyatiga moliyaviy ko'mak berdi.